



ERKIN IQTISODIY ZONANING DAVLAT IQTISODIYOTI UCHUN AHAMIYATI

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi o'qituvchisi

jzoilboyev@gmail.com

+998946796649

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7402765>

ARTICLE INFO

Received: 19th November 2022

Accepted: 28th November 2022

Online: 30th November 2022

KEY WORDS

Erkin iqtisodiy zonalar, soliqlar, investor, soliq imtiyozlari, iqtisodiy samaradorlik

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada erkin iqtisodiy zonalarining davlat va jamiyat uchun ahamiyati tahlil qilingan. Bu ahamiyat faqat iqtisodiy ahamiyat bo'lmagan, hududning infrastrukturaviy salohiyatining oshirishga ham yo'naltirilgan. Xususan hozirda O'zbekiston Respublikasining hududida faoliyat yuritayotgan 30 ga yaqin erkin iqtisodiy zonalar Respublikasining iqtisodiy salohiyatining oshirishiga qaratilganligi tadqiq etilgan. Jahon Bankining 2019-yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston "Doing business" ko'rsatkichlari bo'yicha 100 ballik reytingdan 69,9 ball jamg'arib, dunyo miqyosida 69-o'rinni egalladi va 2018-yildagi 76-o'ringdan 8 pog'ona yuqoriladi. Mamlakatimiz Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa to'rtta davlatlar qatori biznes iqlimi eng yaxshilangan 20 mamlakat tarkibiga kiritildi¹. Undan tashqari, Jahon Banki tomonidan qayd etilishicha, O'zbekistonda biznes yuritishning muayyan sohalarida erkinliklar taqdim etilayotganligi investorlarning e'tiborini tortmoqda. Xususan, o'tgan yillarda aksiyadorlarning huquqlari va asosiy korporativ qarorlardagi rolini oshirish, mulkchilik va boshqaruv tuzilmalarini aniqlashtirish va korporativ shaffoflikni talab qilish orqali minoritar investorlarning himoyasini kuchaytirish sohasida jadal islahotlar amalga oshirilganligi ma'lumotlarda keltirib o'tilgan.

¹<https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers>



Erkin iqtisodiy zonalarning mamlakat va jahon iqtisodiyoti uchun ta'siri haqida so'z borar ekan, bu borada statistik ma'lumotlarga yuzlanish o'rinlidir. Jahon Erkin Zonalar Tashkiloti tomonidan 2020-yilning dastlabki choragi yakunlariga bag'ishlangan xulosalarga ko'ra dunyo miqyosida erkin iqtisodiy zonalar tomonidan erishilgan natijalar o'tgan oylardagiga qaraganda birnumcha yaxshilanganligini ko'rsatmoqda. Erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiyotda tutgan 2019-yilning 4-choragidagi 46% ko'rsatkichidan 56% ko'rsatkichiga yaxshilanganlini qaayd etish joiz. Undan tashqari, mavjud EIZ larning 37 foizi o'zlarining hozirgi holatini normal deb hisoblamoqdalar. Biroq bu o'zgarishlarga mos ravishda holati jihatidan yomon bo'lgan EIZ larning miqdori ham oldingi 5 foizdan 7 foizga oshganligini ko'rsatmoqda(Jahon Erkin Zonalar Tashkiloti hisobotidan)².

Erkin iqtisodiy zonalarning ijobiy samaradorligi haqida so'z ketar ekan, birinchidan, erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishi; Ikkinchidan, yangi ish o'rinlarini yuzaga keltirish; Uchinchidan, muayyan davlatning ishlab chiqarish texnika-texnologiyalarini yanada zamonaviylashtirish; To'rtinchidan, iqtisodiyotning yangi-yangi taroqlarini yo'lga qo'yish; Beshinchidan, davlatning eksport salohiyatini oshirish va boshqa ijobiy natijalarga olib kelishini ta'kidlash joizdir. EIZ larning iqtisodiyot uchun samardorlik ko'rsatkichlarini alohida muayyan davlatlar miqyosida ko'rib

chiqish maqsadga mos keladi. Xususan, avvalo, Xitoy Xalq Respublikasi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, bugun Xitoy iqtisodiyoti o'sish sur'atlari bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda bo'lib, bunga jahondagi biznes munosabatlarni zudlik bilan o'zgartira olganligi sababli erishgan. Arzon ish kuchi G'arbda shippaklardan tortib mobil telefonlargacha bo'lgan turli mahsulotlarning narxi arzonlashishiga sabab bo'ldi. Qolaversa, Xitoy Afrikada eng yirik investorga aylandi, Pekin Yevropa yoki Amerikani emas, aynan "qora qit'a"ni o'zining asosiy hamkori hisoblaydi.

Hozir Xitoy tovarlarini dunyoning hamma joyida ko'rish mumkin, XXI asrga kelib u chindan ham "dunyo fabrikasi" ga aylana oldi. Jahondagi fotoapparatlarning 50%i, konditsionerlarning 30 foizi, kir yuvish mashinalarining 25 foizi va sovutgichlarning qariyb 20 foizi aynan shu yerda ishlab chiqarilyapti. Alohida qayd etish lozimki, Xitoy taraqqiyotida erkin iqtisodiy zonalarning o'rni katta bo'lgan. Ayni paytda bu yerda to'rtta erkin iqtisodiy zona faoliyat ko'rsatmoqda — Shenchjen, Chjuxay, Shantou va Syamen. Bundan tashqari, 14 ta erkin savdo zonasi, 53 ta yuqori va yangi texnologiyalar zonasi, xorijda tahsil olgan mutaxassislariga mo'ljallangan 70 dan ortiq ilmiy-texnik zona, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni qayta ishlaydigan 38 ta zona bor. Umuman, **mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy e'tibor hududlar tabiiy resurslari hamda industrial salohiyatidan foydalanish va eksport tizimini kuchaytirishga qaratilmog'i lozim.** Aynan shu o'rinda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning unumli shakli bo'lgan zamonaviy erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish alohida ahamiyat

² <https://worldinvestmentreport.unctad.org/world-investment-report-2019/chapter-4-special-economic-zones/>



kasb etadi. Aynan ushbu yo'nalishda jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan va o'z samarasini berayotgan bir qator iqtisodiy chora-tadbirlarni qayd etish joiz.

EIZ larning samaradorlik va mamlakat iqtisodiyoti uchun foyda keltirishi masalasida Rossiya Federatsiyasi ham oldingi o'rinlardan joy oladi. So'nggi 25 yil ichida Rossiyada erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda. EIZlar 2005-yil 15-iyundagi 116-FZ-sonli "Rossiya Federatsiyasidagi EIZlar to'g'risida"gi Federal qonuni qabul qilingandan keyin ayniqsa jadal rivojlana boshladi. Shundan so'ng, ilgari yaratilgan barcha EIZlar tugatildi (Kaliningrad va Magadan viloyatlaridagi erkin zonalar bundan mustasno) va yangi EIZlar yaratila boshlandi. EIZlar Rossiyaning eng yirik rivojlanish institutlari hisoblanadi.³ Ko'pgina tadqiqotchilar: Acemoglu va boshqalar, 2004; Acemoglu va Robinson, 2008; Moberg, 2015 ta'kidlashlaricha, EIZlar Rossiya iqtisodiyotida sezilarli o'rin egallaydi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mintaqalararo tabaqalanishni kamaytirishga yo'naltirilgan mintaqaviy siyosatning muhim vositalari Rossiyadagi rivojlanish institutlari, shu jumladan EIZlar (Tatarkin, 2012; Tatarkin va Kotlyarova, 2013; Kryukova, 2014; Maslixina va Maslixin, 2015; Erochina, 2015)ning tashkil etilgamligi va faoliyat yuritayotganligi bilan bog'liqdir. Statistika ma'lumotlariga qaraganda 2011-yilda mamlakatda 294 ta xirijiy investor faoliyat yuritib, 7397 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014-yilga kelib 375 ta investor

va 13 608 ta ish o'rinlariga to'g'ri kelmoqda. Ko'rishimiz mumkinki, investorlarning soni ortishi bilan mamlakatda yaratilayotgan ish o'rinlarining soni ham mos ravishda ortib bormoqda. Bu masalaning ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq bo'lsa, EIZ larning iqtisodiy samradorligi ham ancha yuqoridir. Xususan, 2013-yildan boshlab Rossiya Federatsiyasi Iqtisodiy rivojlanish vazirligi tomonidan mavjud ma'lumotlar asosida EIZlar faoliyatining samaradorligi baholanib borilmoqda. Baholar natijalari bo'yicha yillik hisobot tayyorlanadi. 2014-yil yakunlariga ko'ra 375 investor EIZ qatnashchisi sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, ular 142,3 milliard rubl miqdorida investitsiya kiritgan; 13467 yangi ish o'rinlari yaratildi.

Byudjet mablag'lari hajmida EIZlarning infratuzilmasini yaratishning qiymati 128,9 mlrd rublni tashkil etdi va 234 ta yangi infratuzilma obyektlari qurildi. Davlat byudjetiga EIZ lard tomonidan to'lanadigan soliqlar Rossiya Federatsiyasining byudjet tizimining 14,7 milliard rublini tashkil etganligini ko'rish mumkin. Shu muddat ichida rezidentlarning umumiy daromadi 148,3 milliard rublni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, EIZlar Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyoti uchun samarali mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda.

EIZ larning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri haqida so'z ketganda O'zbekiston Respublikasidagi vaziyatni ham keltirib o'tishimiz o'rinlidir. Tan olib aytish kerakki, ohirgi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotimizni o'sishiga turtki bo'lmoqda. Buni Jahon Bankining 2019-yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston "Doing business" ko'rsatkichlari bo'yicha 100

³ Veronika Yu. Maslikhina. "Special Economic Zones in Russia: Results Evaluation and Development Prospects". International Journal of Economics and Financial Issues, 2016, 6(S1) 275-279



ballik reytingdan 69,9 ball jamg'arib, dunyo miqyosida 69-o'rinni egalladi va 2018-yildagi 76-o'rindan 8 pog'ona yuqoriladi. Mamlakatimiz Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa to'rtta davlatlar qatori biznes iqlimi eng yaxshilangan 20 mamlakat tarkibiga kiritildi⁴. Undan tashqari, Jahon Banki tomonidan qayd etilishicha, O'zbekistonda biznes yuritishning muayyan sohalarida erkinliklar taqdim etilayotganligi investorlarning e'tiborini tortmoqda. Xususan, o'tgan yillarda aksiyadorlarning huquqlari va asosiy korporativ qarorlardagi rolini oshirish, mulkchilik va boshqaruv tuzilmalarini aniqlashtirish va korporativ shaffoflikni talab qilish orqali minoritar investorlarning himoyasini kuchaytirish sohasida jadal islahotlar amalga oshirilganligi ma'lumotlarda keltirib o'tilmoqda.

"Angren" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalarida taklif etilayotgan imtiyozlar va preferentsiyalarni olish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmining pastki qismi "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi holatiga nisbatan pastroq. Erkin iqtisodiy zonaning imtiyozlarni olish shartlari va ularning amal qilish shartlari bo'yicha farqi "Angren", "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalarida mavjud bo'lgan va chet ellik sarmoyadorlar uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, Angren va Ohangaron shaharlarida ishchi kuchi miqdori hisobga olindi. "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalarining Jizzax hududida tashkil etilishi Xitoy (Xitoy Xalq Respublikasi) kompaniyalariga 9 million

dollarlik 6 ta loyihani amalga oshirishga imkon berdi, 2018 yilda Xitoy Xalq Respublikasidan tovar aylanmasi 66 million dollarni tashkil etdi. "Angren" erkin iqtisodiy zonalar. "Angren" EIZ umumiy qiymati 185,8 million dollarga teng bo'lgan sakkizta loyiha amalga oshirildi. "Angren" erkin iqtisodiy zonasi funktsiyalari uchun "Uz-Prista" qo'shma korxonasi bajarilgan texnik moylarni qayta ishlashda katta rol o'ynaydi, yangi korxonada 50 yangi ish o'rne yaratildi. "Prista Oil" Bolgariya kompaniyasi Xolding "Angren" erkin iqtisodiy zonasi hududida ikkita yangi korxona yaratdi. "Uz-Ecoprotect" qo'shma korxonasi va "Uz-Prista" qo'shma korxonasi zamonaviy bazaviy dvigatel ishlab chiqarishni yaratish doirasida qayta ishlamoqda. Bajarilgan texnik moylarni yig'ish va qayta ishlash bo'yicha to'liq ish tsikliga ega moylar "O'z-Ekoprotekt" QK bajarilgan texnik moylarni yig'ish, saqlash va tashish bilan shug'ullanadi. Ko'rinib turibdiki, erkin iqtisodiy zonalarining iqtisodiyotimizda tutgan o'rne tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu esa davlatimizning eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Jahonning erkin iqtisodiy zonalar faoliyat olib borayotgan davlatlari iqtisodiyotida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida jahon savdosining, jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuvi jaarayonining yanada tezlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy hol. Bu esa davlatlar va hukumatlarning o'zaro hamkorlik munosabatlarini yanada yaxshilashga omil bo'lib xizmat qiladi.

Hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni rag'batlantirish va daxldorlikni kuchaytirish maqsadida mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan mahalliy

⁴<https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers>



davlat organlari vakolatlari kengaytirib kelinmoqda.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish hisobiga qo'shimcha soliq tushumlariga erishish, hududlarni subvensiyadan chiqarish va umumdavlat soliqlarini mahalliy byudjetlarda qoldirish va hokazolar bevosita mahalliy byudjetlar daromadlarining oshishiga, bu esa o'z navbatida hududlarda turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Natijada 2018-yildayoq barcha mahalliy byudjetlar subvensiyadan to'liq chiqarildi va bugungi kunda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar qo'llanilmoqda.

1-jadval

2021-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari, xarajatlari va tartibga soluvchi byudjetlari transfertlari, milliard so'mda

No	Hududlar	Daromadlar	Xarajatlar	Tartibga soluvchi byudjetlarga ro transfertlar
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1614,2	2915,6	1301,4
2	Andijon viloyati	2352,2	3228,8	876,7
3	Buxoro viloyati	1935,4	2375,4	440,0
4	Jizzax viloyati	1212,9	1702,9	490,0
5	Qashqadaryo viloyati	2570,3	4147,6	1577,3
6	Navoiy viloyati	1535,8	1535,8	
7	Namangan viloyati	1970,6	3254,5	1284,0
8	Samarqand viloyati	2657,0	3759,7	1102,7
9	Surxondaryo viloyati	1754,7	3048,3	1293,6
10	Sirdaryo viloyati	745,7	1279,9	534,2
11	Toshkent viloyati	3009,8	3009,8	
12	Farg'ona viloyati	2904,9	3815,0	910,1
13	Xorazm viloyati	1442,7	2075,6	632,9
14	Toshkent shahri	4068,6	4068,6	
Jami	29774,7	40217,6	10443,0	

Demak, bundan ko'rishimiz mumkin bo'ladiki, hududlarda faoliyat yuritayotgan EIZ larning hududlarni rivojlantirishga

qo'shayotgan hissi salmoqli bo'lmoqda. Buni yuqorida berilgan jadvaldan ham ko'rishimiz mumkin.



Jahon iqtisodiyotidagi ilg'or tajribalarga ko'ra hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat olib borayotgan bo'lsa, ularning 20 tasi 2016-yildan keyin tashkil etildi. Bunda umumiy erkin iqtisodiy zonalaridan tashqari alohida sohalar, jumladan turizm, farmatsevtika kabi muhim sohalarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati yo'lga qo'yilganligini alohida qayd etib o'tish zarur.

Faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalar faoliyatini umumiy tartibga solish nuqtai nazaridan 2020-yil 17-fevralda O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni⁵ qabul qilindi. 2016-yil 26-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4853-sonli farmoni⁶ asosida barcha erkin iqtisodiy zonalar maqomi, imtiyozlari tenglashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm",

"Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 3-maydagi PF-5032-son Farmoni⁷ bilan farmatsevtikaga ixtisoslashgan va sohani rivojlantirishga qaratilgan 7 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Umuman 2016-yildan buyon erkin iqtisodiy zonalar faoliyatiga doir 10 dan farmon va qarorlar qabul qilindi.

Shuningdek, tumanlarni ham kompleks iqtisodiy rivojlantirish maqsadida bugungi kunga qadar 348 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilib, o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Natijada erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 2,6 milliard dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 36 mingga yaqin ish o'rni yaratilgan. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trillion so'mlik 1 ming 497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta'minlangan⁸.

⁵ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2020-y., 03/20/604/0175-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son// <https://lex.uz/docs/-4737511>

⁶ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 43-son, 498-modda; 2017-y., 3-son, 40-modda; 23-son, 448-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018-y., 06/18/5305/0592-son; 05.04.2018-y., 06/18/5398/1004-son; 04.05.2018-y., 06/18/5428/1158-son; 16.05.2019-y., 06/19/5719/3136-son; 19.06.2020-y., 06/20/6011/078-son//<https://www.lex.uz/docs/-3056978>

⁷ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 36-son, 956-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2018-y., 09/18/29/0587-son; 14.03.2018-y., 09/18/197/0892-son//<https://lex.uz/ru/docs/-3334121>

⁸ B.To'razoda. Erkin iqtisodiy zonalar – taraqqiyot tayanchi. <https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/34365/> 2021 yil 28 aprel.



References:

1. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers>
2. <https://worldinvestmentreport.unctad.org/world-investment-report-2019/chapter-4-special-economic-zones/>
3. Veronika Yu. Maslikhina. "Special Economic Zones in Russia: Results Evaluation and Development Prospects". International Journal of Economics and Financial Issues, 2016, 6(S1) 275-279
4. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers>
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2020-y., 03/20/604/0175-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son// <https://lex.uz/docs/-4737511>
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 43-son, 498-modda; 2017-y., 3-son, 40-modda; 23-son, 448-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018-y., 06/18/5305/0592-son; 05.04.2018-y., 06/18/5398/1004-son; 04.05.2018-y., 06/18/5428/1158-son; 16.05.2019-y., 06/19/5719/3136-son; 19.06.2020-y., 06/20/6011/078-son//<https://www.lex.uz/docs/-3056978>
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 36-son, 956-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2018-y., 09/18/29/0587-son; 14.03.2018-y., 09/18/197/0892-son//<https://lex.uz/ru/docs/-3334121>
8. B.To'razoda. Erkin iqtisodiy zonalar – taraqqiyot tayanchi. <https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/34365/> 2021 yil 28 aprel.